

JURJONIYNING BORLIQ HAQIDAGI QARASHLARI (BORLIQ HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSYASI)

Bozorova Gulmira Mahmudovna

Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishida borliq haqidagi tasavvurlar o'rganilib, falsafiy nuqtai-nazardan asoslab berilgan. Borliq haqidagi falsafiy qarashlar chuqur tahlil qilinib, Jurjoniyning borliq haqidagi g'oyalari ilmiy jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Borliq, yo'qlik, Jurjoni, ontologiya olam, tabiat, jamiyat, g'oyalar, Avesto.*

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon “borliq” va “yo'qlik” haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelish sabablari, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'rinadi, shunday bo'lsada unga shu choqqacha hammani birday qanoatlantiradigan javob topilganicha yo'q. Bunday holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz bularning barchasi birday mavjuddir, ular turli xil ko'rinishlarda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q. Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go'zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. Olam tushunchasi, eng avvalo, olam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo'lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'lmas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Hech narsasi yo'q olam yo'qlikdir. U mavhum tushuncha, ya'ni abstrakstiyadir. Olam asosida yotuvchi to'rt unurni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g'oyalar vujudga keldi hamda, olam to'g'risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo'lgan.

Falsafa tarixida borliq muammosi insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Borliq muammosini falsafiy anglab etishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi hind va qadimgi xitoy falsafaiy adabiotlarida uchraydi. Xususan, “Veda”lar (Qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va ularga diniy-falsafiy sharhlar – “Upanishada”larda yaxlit ma'naviy substansiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar, shuningdek, dunyo haqidagi materialistik va ateistik tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy Asoslar-olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi.

Ayni vaqtda, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan narsalar va hodisalarning butun rangbarangligini belgilovchi besh stixiya (suv, er, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq “O'zgarishlar

kitobi”da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qay etiladi. Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o‘zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar, avvalo, tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo‘lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o‘z asarlarini odatda “Tabiat haqida” deb nomlaganlari, ularning o‘zlari esa naturalistlar, “fiziklar” deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi. Sharq donishmandlari kabi, antik mutafakkirlarni ham borliqning manbalari qiziqtirgan.

Jurjoniyning dunyoqarashi, undan oldin o‘tgan salafarinikidek, o‘rta asrlardagi butun falsafiy masalalami, chunonchi, borliq haqidagi ta’limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash haqidagi ta’limot, til va tafakkur aloqalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. U koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi dunyoning umumiy manzarasini yaratishga harakat qildi. Jurjoniya aqidasi xos bo‘lgan narsa borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishdan iborat edi. Besh bobdan iborat bo‘lgan o‘zining

“Oyinaye gitinamo” (“Dunyoni aks eltiruvchi ko‘zgu”) risolasining birinchi bobini vojib ul-vujudva mumkin ul-vujudnimavjud ekanligini asoslashga bag‘ishlaydi. Jurjoniya unga shunday ta’rif beradi: “Yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, bor bo‘lishi esa zarur bo‘lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Masalan, Xoliqning o‘zligi kabi tushuncha Borligi ham, yo‘qligi ham zarur bo‘lmagan narsa mumkin ul-vujud deb ataladi”.

Jurjoniya fikricha, vojib ul-vujud Xudo bo‘lib, mumkin ul-vujud esa moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya’ni Xudoning borligini tan oladi. Uning fikricha, mumkin ul-vujud o‘zining bor bo‘lishi uchun qandaydir tarzda bo‘lsa ham, biror bir sababga ehtiyoj sezadi.

U biror bir narsa tufayli, ya’ni birinchi sabab mohiyatiga ko‘ra, mumkin ul-vujud darajasiga ko‘tariladi.

Jurjoniya tabiatdagi hech bir narsa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta’kidlaydi. Hamma mavjud ashyolardagi butun harakat va o‘zgarishlar faqat makon va zamondagina ro‘y beradi. Jurjoniya dunyoqarashiga xos xususiyat, uning butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog‘langan bo‘lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta’riflashdir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to‘rt unsur, ya’ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya’ni metallar, o‘simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to‘rt unurning bir-biri bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir.

Jurjoniya falsafasida moddiylik g‘oyalarigina emas, balki dialektik dunyoqarash mavjud. Uning fikricha, moddiylikdan xoli bo‘lgan bo‘sh joy yo‘q. Bu haqda u shunday yozadi: Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo‘lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo‘shliq emas, chunki uni modddan tashqarida bo‘lgan tushuncha yoki biror o‘lchov bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari bir-biri bilan o‘zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog‘lanib

turgan narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas. Har atrofdagi dunyo, o'zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo'shliqning bo'lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo'lakchalarning tarkibiy majmuasi olam deb ataladi.

Xulosa. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini to'la o'rganish mustaqil Respublikamiz ma'naviyatiga salmoqli hissabo'lib qo'shilishi shubhasizdir. Zero yurtboshimiz aytganlaridek, buyuk ajdodlarimizga xos ajmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish – eng dolzarb vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
4. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
6. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 339 b.
7. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
8. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: “Sharq”, 2005 y.
9. Jurjoniy. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag'miniy. O'z RFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti dagi 2655-raqamli qo'lyozma, 225 -a bet (arab tilida).
10. O'z FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar jamg'armasi. “Oynayegitinamo” 2984-raqamli qo'lyozma, 1-sahifa (fors tilida) 2 a-b.
11. Falsafa qomusiy lug'at. –T.: “Sharq”, 2005 й. 431-b.
12. Ma'naviyat Yulduzlari / F.Hasanov -T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. 184-185 betlar.
13. FALSAFA o'quv –uslubiy majmua. Toshkent Moliya institute. T: 2019. 55 -60 betlar.
14. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
15. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
16. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

17. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 616-625.

18. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.

19. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).

20. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. *GOLDEN BRAIN* 1 (24), 59-67.

21. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O 'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.

22. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. *НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE"*, 1(2).

23. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. *SCHOLAR*, 1(28), 252-257.

24. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 17-17.

25. Shodiyev, J. J. R. (2023). INSON-BU DUNYO FARZANDI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 357-369.

26. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 126.

27. Bakhtiyorovich, D. B. (2019). Tolerance of the Khojaghand-Nakbandian order of tolerance. *Indonesian Journal of Education Methods Development*, 8, 10-21070.

28. Tursunovna, S. O., Bakhridinovich, M. S., Bakhtiyarovich, D. B., & Makhmudovna, G. M. (2020). The issues of human and humanity in the teaching of Abdulkhalik Gijduvani. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 14-17.

29. Falsafa. Saloxov A.Q. Buxoro 2021. Buxoro muhandislik–texnologiya institute. 21-24 betlar.